

О‘ЗБЕК ТИЛИ – О‘ЗБЕК МАДАНИЙАТИНИНГ ШАКЛИ СИФАТИДА

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati institute filologiya
fakulteti 2-bosqich talabasi
Abdullayeva Mushtariybonu Anvar qizi*

Annotatsiya. Til har bir millatning eng muhim ma’naviy boyligi, uning tarixiy xotirasi va madaniyati mujassam bo‘lgan bebaho hodisadir. O‘zbek tili ham ana shunday ulug‘ ne’mat bo‘lib, xalqimizning qadimiy dunyoqarashi, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlari va hayot falsafasini o‘zida mujassam etadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki o‘zbek xalqining ruhiy qiyofasi, milliy tafakkuri va madaniy merosining asosiy ko‘rinishidir. Maqolada o‘zbek tilining xalqi va madaniyati uchun qay darajada muhim omil ekanligi ilmiy asoslar bilan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: til va madaniyat, xalq, o‘zbek tili, adabiy til, milliy til, til tarixi, aloqa vositasi, og‘zaki va yozma nutq.

KIRISH

Til – insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a’zolarining fikrni ifodalashi va o‘zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Tilning tabiiy-ilmiy, diniy-dunyoviy talqinlari bor. Diniy talqinga ko‘ra, til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonga berilgan. Dunyoviy talqiniga ko‘ra, til hozirgi ko‘rinishi darajasiga yetguncha juda uzoq evolyutsion jarayonlarni, ya’ni insonning o‘zining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari bilan teng davrni bosib o‘tgan. Til rivojlanishi va takomillashishi uchun adabiy til maqomiga ega bo‘lishi lozim.

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlash-tirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. „Qayta ishlangan“ tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til

o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqda ham Adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili, ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa til adabiy til bo'lgan.¹

Tilni o'rganishimizda biz, avvalambor, til tarixiga murojaat qilamiz. Til tarixini o'rganish uchun esa, albatta, tildan foydalanuvchi xalqning tarixini ham bilishimiz lozim. Chunki xalq bilan til baravar rivojlanadi va ularning tarixi bir-biriga bog'liq hisoblanadi. O'zbek xalqi tarixi juda uzoq yillarga borib taqaladi. Shuning uchun ham o'zbek tili tarixini ham uzoq o'tmishga ega deya olamiz. Til tarixi bo'yicha bir necha olimlar izlanishlar olib borishgan va olimlar bu tilni o'zlarining to'plagan ma'lumotlaridan kelib chiqib, davrlashtirib o'rganishga harakat qilishgan. B.B.Radlov turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi: 1. Sharqiy guruh (Sibir tatarlari tili) .2. G'arbiy guruh (qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar...tillari) .3. O'rta Osiyo guruhi (o'zbek, uyg'ur tillari). 4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim – tatar tillari). G'.Aburahmonov, Sh. Shukurov tarixi: 1.Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha); 2. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha)Eski turkiy til (XI asrdan XII asrgacha); 3.Eski o'zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha) ; 4.Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.²

Ko'rib o'tganimizdek til tarixi haqida har xil qarashlar mavjud. O'zbek tili tarixi — ming yillik taraqqiyot natijasida shakllangan boy merosdir. U qadimgi turkiy tillardan rivojlanib, Navoiy davrida yuksak adabiy til darajasiga ko'tarilgan, keyinchalik esa davlat tili sifatida mustahkam mavqega ega bo'lgan. Bugungi kunda o'zbek tili o'z xalqining tarixi, madaniyati va ma'naviyati mujassam bo'lgan bebaho til sifatida rivojlanishda davom etmoqda. O'zbek tili qadimdan mavjud ekanligi, uning shakllanish bosqichlari necha ming yillik tarixni qamrab olishini G'arbdir, Sharqdir yaxshi tasavvur qilishadi va buni o'rganayotgan olimlar ancha-munchani tashkil qiladi.

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T: Talqin, 2005.

² Турсунов У., Уринбоев Б., Узбек адабий тили тарихи. -Т: Укитувчи, 1995. 20-21-б.

Hattoki o'zbek tilini o'rganish maqsadida bir qancha millat vakillari O'zbekistonga tashrif buyurishmoqda. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. O'zbek tili qadimiy va boy til, ulkan adabiyot sifatida o'zini ko'rsatmoqda.³

METADOLOGIYA

Bir kishining nutqi insoniyatning umumiy mushtarak nutqiy tajribasi sifatida avloddan-avlodga o'tib, avval og'zaki, keyinchalik yozma ko'rinishini kasb etguncha juda uzoq zamonlar o'tgan. Biroq, til og'zaki va yozma nutq sifatida to'la shakllangach, u insonning ham jisman, ham ijtimoiy jihatdan juda tez taraqqiy etishini ta'minladi. Til tufayli insoniyatning ijtimoiy hayoti, uning naslining miqdoriy jihatdan o'sishi ham aql bovar qilmas darajada ilgarilab ketdi. Shuningdek, o'zbek tili milliy adabiyot va san'atning asosiy tayanchidir. Alisher Navoiydan tortib, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek va zamonaviy adiblarga bo'lgan ulug' ijodkorlar til orqali o'zbek xalqining ruhiy olamini, orzu-umidlarini, iztiroblari va quvonchlarini bebaho asarlarda mujassam etganlar. Adabiyot tilni boyitadi, til esa adabiyotning yashashiga imkon yaratadi — bu o'zaro bog'liq yuksak madaniy jarayondir. O'zbek tili madaniyatining shakli sifatida yana shuni anglatadiki, til millat birligini mustahkamlaydi. Til orqali avlodlar o'zaro bog'lanadi, milliy tafakkur davomiyligi ta'minlanadi. Ona tilini bilish va asrash — milliy o'zlikni saqlab qolish demakdir. Bugungi globallashuv davrida o'zbek tilining nufuzi, qo'llanish doirasi kengaymoqda. Davlat tili sifatida uning mavqeini yuksaltirish, ta'limda, ilm-fanda, internet va texnologiyalar sohasida faol qo'llash — bu o'zbek madaniyatining taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari ham juda ko'p va samarali ishlar olib bormoqda: “Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'zni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda”⁴

³ Mahmudov N. “Sog'lom avlod uchun” jurnali, 2016-yil, 9-son.

⁴ Mirziyoyev Sh. “Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillarining btili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz” nutqi. 2023-yil 21-oktabr.

Mustaqillik yillaridan so'ng o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Avvalo, davlat tilining maqomi mustahkamlanib, uni hayotning barcha sohalarida qo'llash bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi. Rasmiy hujjatlar, ta'lim tizimi, davlat boshqaruvi va ommaviy axborot vositalarida o'zbek tilidan foydalanish izchil yo'lga qo'yildi. Tilni rivojlantirish maqsadida yangi imlo qoidalari, lug'atlar, o'quv qo'llanmalari yaratildi, tilshunoslik ilmiga keng yo'l ochildi. Bundan tashqari, o'zbek tilining xalqaro nufuzi ham oshib, xorijiy universitetlarda uni o'rganish bo'yicha markazlar ochildi. Internet, texnologiya va raqamli platformalarda o'zbekcha kontentning ko'payishi tilning zamonaviy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilda chiqarilgan "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va siyosatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi farmonida ham tilni rivojlantirishga doir bir qancha masalalar va rejalar o'rta tashlanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va il siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida quyidagilar nazarda tutilgan: mamlakatimizda ijtimoiy – siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofliqini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi masalalar ko'rib chiqilgan⁵. Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2019- yil va 2025- yilda chiqarilgan tilni rivojlantirish to'g'risidagi qonun va farmonlarini ham fikrimizga dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

⁵ Mirziyoyev Sh. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va siyosatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil, 21-oktabr.

Mustaqillik tufayli o'zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o'zlik, davlat ramzi va ma'naviy qadriyatlarning bosh tayanchi sifatida qadrlanmoqda. Shu bois mustaqillik yillari o'zbek tilining ravnaq topgani, nufuzi ortgani va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan davr bo'lib qoldi.

Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi eng muhim omildir. Har bir millat o'zining dunyoqarashi, qadriyatlari, odob-axloqi va jamiyatdagi munosabatlarini aynan til orqali ifodalaydi. Til madaniyatni saqlab qoluvchi, uni avloddan avlodga yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi — ertaklar, dostonlar, maqollar, matallar va qo'shiqlar — til orqali jamiyatning tarixiy tajribasini, donoligini va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qoladi. Shu sababli til boy bo'lsa, madaniyat ham boy va rang-barang bo'ladi; tilning imkoniyatlari toraysa, madaniyatning ayrim jihatlari yo'qolib ketishi mumkin. Til shuningdek, jamiyatdagi muomala odobi va axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Masalan, hurmat-izzatni ifodalovchi so'zlar, murojaat shakllari va odobiy iboralar tilda aniq tartiblangan bo'ladi. Bu esa madaniyatning kundalik hayotda qanday namoyon bo'lishini, jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantiradi. Til nafaqat shaxsning fikrlash va tushunish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi vosita, balki millatning tarixiy xotirasi, urf-odatlar va ma'naviy merosini saqlovchi eng muhim zanjirdir. O'zbek tilining rivojlanishi va uning keng qo'llanilishi ham o'zbek madaniyatining yuksalishiga bevosita ta'sir qilgan. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga berilgan e'tibor, uning davlat tili maqomi, ta'lim, ilm-fan, madaniyat va texnologiya sohalarida faol qo'llanilishi til va madaniyatning bir-birini mustahkamlovchi jarayon ekanini ko'rsatadi. Tilning har bir iborasi, so'zi va adabiy namunasi xalqning ruhiy olami, tarixi va ma'naviyati haqida dalolat beradi. Shu bois til — madaniyatning ko'zgusi, uning ruhiy asosi va milliy o'zlikni ifodalovchi eng kuchli vosita hisoblanadi. Til yashasa, madaniyat ham yashaydi; til rivojlansa, madaniyatning ifoda imkoniyatlari kengayadi; til yo'qolsa, madaniyatning ayrim unsurlari sekinlik bilan yo'qoladi. Shunday ekan, tilni asrash, rivojlantirish va boyitish — milliy

madaniyatni saqlash, avloddan avlodga uzatish va xalqning ma'naviy hayotini mustahkamlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Til — xalqning ma'naviy poydevorini belgilovchi, tarixiy xotira va madaniy merosni avlodlarga yetkazuvchi eng muhim ijtimoiy hodisa. Til jamiyatdagi o'zaro aloqa, tafakkur jarayoni va ma'naviy taraqqiyotning uzviyligini ta'minlaydi. Har bir millatning o'zligini namoyon etadigan, uning ruhiy olamini ifodalaydigan bu noyob tizim insoniyatning umumiy madaniy manzarasini boyitadi. Tilning to'g'ri qo'llanishi jamiyatda fikr erkinligi, ma'rifatparvarlik va madaniy yuksalishning shakllanishiga zamin yaratadigan beqiyos qudratga ega. Til taraqqiyoti xalqning ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotidagi yuksalish bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy o'zlikni mustahkamlaydigan kuch sifatida qiymat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. "Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillarining btili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz"nutqi. 2023-yil 21-oktabr.
2. .Mirziyoyev Sh. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va siyosatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil, 21-oktabr.
3. Турсунов У., Уринбоев Б., Узбек адабий тили тарихи. -Т: Укитувчи, 1995. – 264 bet.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin, 2005
5. Muhiddinova X. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'qituvchi, 2006. -208 bet.
6. Zikrillayev G'. Istiqlol va adabiy til. -Toshkent: Fan, 2004. -120 bet.
7. Abdurahmonov G'. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1973. -320 bet.
8. Manba: <https://share.google/awmAT9Vy2c4u2ONI3>
9. Manba: <https://share.google/irVWQzNM9bpsSsRym>